



INGLIZ TILI FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Matkarimova M.K.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika va Psixologiya
mutaxassisligi 2 –kurs magistranti,
Chirchiq shahar 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: o‘quvchi, kreativlik, ijodkorlik, bashorat qila olish, ingliz tili fani, mustaqil topshiriqlar daftari, qobiliyat.

Ключевые слова: студент, креативность, креативность, предсказуемость, английский язык, самостоятельная рабочая тетрадь, способности.

Key words: student, creativity, creativity, predictability, english, independent workbook, ability.

Резюме:

Ushbu maqolada umumta’lim maktabi 9- sinf o‘quvchilarining ingliz tili fani bo‘yicha kreativlik qobiliyatlarini darsdan tashqari mashg‘ulotlarda rivojlantiruvchi ijodiy topshiriqlar haqida ma’lumot berilgan.

Резюме:

В данной статье представлена информация о творческих заданиях, развивающих творческие способности учащихся 9 классов английского языка во внеклассной деятельности.

Summary:

This article provides information about creative tasks that develop the creative abilities of 9th grade students of the English language in extracurricular activities.

Bugungi jadal tezlik bilan rivojlanayotgan davrda mamlakatimizda asosiy e’tibor o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim –tarbiyasiga,ularning mustaqil fikrlaydigan,yuksak tafakkurli va ma’nan yetuk inson bo‘lib yetishishlariga qaratilgandir.Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, ”Yoshlar imizning musatqil fikrlaydigan,yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib,dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Insoniyat shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar va innovatsiyatlar davrida yashamoqda, bu davr imkoniyatlaridan to‘liqroq foyalanish uchun xorijiy tillarni bilish bilish zarur. Shuningdek, xorijiy tillarda gaplasha olish insonlarga dunyo

eshiklarini ochib beradi, o‘zaro fikr almashish, muloqat qilish imkoniyatini yaratadi va bamisoli ko‘prik singari maqsadlarga yaqinlashtiradi. Shu sababdan xorijiy tillar birinchi sinfdan boshlab pedagogik va psixologik asoslar, kreativ yondashuv asosida o‘qitish har qachongidanda muhimdir.

O‘qituvchi o‘z fanidan o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni oshiruvchi topshiriqlar bilan ishlash mahoratini shakllantirish, ijodkorlikni oshiruvchi metodlarni qo‘llash hamda o‘qitishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari doirasida faoliyatini yo‘lga qo‘yishi kerak. Buning uchun maktab o‘quvchilarda fikrni tog‘ri maqsadga muvofiq qo‘llay olish, o‘ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish, xayol qila olish qobiliyatlarini muntazam oshirib borish, ushbu qobiliyatlarni dars jarayonlarida rivojlantirish imkoniyatlarini yaratib berish uchun o‘qituvchi ham ijodkor bo‘lishi kerakligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, pedagoglarda ham kreativlik qobiliyati rivojlangan bo‘lishi – bugungi davr talabidir.

XXI asr shiddat bilan rivojlanib bormoqda va bunday jadal jarayonlar yurtimizdagi ta‘lim sohasida olib borilayotgan ishlarni yanada rivojlantirishga asos bo‘lmoqda. Xususan, ingliz tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini yanada rivojlantirish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori 3-ilovasi bilan tasdiqlangan. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limining umumta‘lim fanlari bo‘yicha malaka talablari” mazmuniga va Xalq ta‘limi vazirligining 2018 yil 20-iyundagi 01-02/2-2-194 –son ma‘lumotnomasida ham umumta‘lim maktablari o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlari, qiziqishi va ehtiyojlari to‘g‘risidagi tasavvurlar boyitilgan. O‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari bilan xorijda ko‘plab universitetlar jumladan, AQSH (University of California), Germaniyada (Technische Universitat Darmshtadt), Chexiyada (University of Ostrava) Angliyada (Cambridge University), Rossiyada (Moskva davlat universiteti, Sankt Peterburg) kabi rivojlangan yetakchi mamalakatlarining universitetlarida tadqiq qilinmoqda.

Mustaqil hamdo‘stlik davlatlari olimlaridan L.Vigotskiy, A.Leontyev, D.Elkonin, O.Vasilchenko, E.Melkumova, V.Mireskaya, kabilarning ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarinin rivojlantirishning nazariy asoslari o‘rganilgan. Shuningdek, yurtimi olimlaridan E.G‘oziyev, M.Davletshin, D.Muxamedova, S.Safayev kabilari o‘quvchi shaxsining kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik va akmeologik xususiyatlarini o‘rganganlar.

Umumta‘lim maktablari 9- sinf o‘quvchilariga ingliz tili fani bo‘yicha sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda kreativlik qobiliyatlarini oshirish uchun quyidagicha



“Mustaqil topshiriqlar bajarish daftari”ni berish mumkin. Jumladan, quyida beriladigan topshiriqlar 9-sinf I chorak darslari uchun mo‘ljallangan.

Birinchi bo‘lim (It’s a challenge!) yuzasidan o‘tilgan Grammatik va lug‘atga oid mavzulardan foydalanib yakka tartibda o‘quvchi o‘zi va rishgan yutuqlari haqida kamida 50 ta so‘zdan iborat matn tuzishi lozim. Matn tuzishda o‘quvchi o‘rganilgan bilimlardan foydalana olishi va yodlagan so‘zlari yordamida gap tuza olishi lozim. Ushbu topshiriqning ijodiyligi shundaki, o‘quvchi o‘zi haqida ,kelgusida erishmqchi bo‘lgan maqsadlari haqida ma’lumot beradi. Har bir bo‘lim yuzasidan matnlar tuzish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashiga olib keladi. Ushbu ijodiy topshiriq orqali ingliz tilida o‘quvchining nafaqat yozma balki og‘zaki nutqini o‘stirishga, ijodiy fikrlashni o‘stiradi.

Ikkinchi bo‘lim (Our changing planet) bo‘yicha barcha 2 bo‘lim asosida berilgan Grammatik mavzular,so‘zlar qamrab olinadi va o‘quvchi o‘zining sevimli hayvoni haqida yakka tartibda kichik maqola yozishi lozim. Albatta,gaplar tuzishda Grammatik mavzular va so‘zlardan foydalanish talab qilinadi. O‘quvchi topshiriqqa ijodiy yondashishi va o‘zining sevimli hayvoni haqida ma’lumot izlashi va uni yorita olishi shuningdek, tanlagan hayvonining rasmini chizishi yoki rasmlardan ham foydalanishi mumkin. Bu topshiriqni bajarish yangi g‘oyalarni yaratish kabi kreativlikning komponentlarini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi bo‘lim (On holiday) o‘quvchilar uchun qiziqarli va ijodiy mavzulardan hisoblanadi. Ushbu topshiriq ham yakka tartibda bajarilish talab qilinadigan ish turi hisoblanadi.Berilgan so‘zlar va Grammatik mavzularni topshiriqni bajarish jarayonida ijodiy qo‘llash talab etiladi. O‘quvchi Turistlar ma’lumot olish markazida suhabatlasha olish bilimlar va ishdagi keativlik baholanadi.O‘quvchi real vaziyatlarga tayyor bo‘lishni va ijodiy fikr yuritib o‘zi tanlagan markazda bo‘lib o‘tadigan suhbatga matn tayyorlaydi.

To‘rtinchi bo‘lim (My place) ham ijodiy tasavvur boyligini ishga solishga va o‘tilgan grammatik mavzular va yod olingan so‘zlar yordamida bajarilishi lozim. Topshiriq sharti uyni tasvirlash ,bunda o‘quvchi o‘z uyini yoki orzusidagi uyni tasvirlashi mumkin va ushbu ish turi ham yakka tartibda bajariladi va keng ma’noda go‘zallikni his etishga undaydi. Topshiriq uchun o‘quvchi rasm chizishi yoki rasmlardan foydalanishi ham mumkin bo‘ladi.

Beshinchi bo‘lim (School) deb nomlanadi va o‘quvchilar o‘tilagan Grammatik mavzular va o‘rganilgan so‘zlar yordamida gapirish ko‘nikmasin oshirish uchun vazifa bajaradilar.O‘quvchilar bu topshiriq jarayonidaaa kreativlik komponentlaridan muammolarni ijobiy hal qilish ustida ishlashadi. O‘quvchilar o‘zlarining orzusidagi maktab qanday bo‘lishi haqida ijodiy fikr

yuritadilar va gapirish jarayoniga tayyorlanadilar. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati; ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida, to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechiminining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

Prognoz, bashorat qila olish esa o'z sohasi rivojidadagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko'tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o'zgarishi hamda mazkur o'zgarishlarning sohaga bo'lgan ta'siri, narxlarning ko'tarilishi, pasayishi va b. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

Xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz tili fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyatga bo'lib, "Mustaqil topshiriqlar daftari" yordamida ijobiy natija olish mumkin. Kreativlik juda keng tushuncha va berilgan ijodiy topshiriqlar yordamida o'quvchilarning tasavvur boyligi, qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, keng ma'noda go'zallikni his etish, o'ziga ishonch, shaxs sifatida yetuklikka yetaklash kabi hislatlarni yanada rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda.
2. Guilford J.P. (Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444-454).
3. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Monografiya. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. -B. 77
4. Lucy Frino. "Guess what!" Teacher's book 6./O'qituvchi kitobi. - Cambridge University Press., 2022. -B. 71.



5. Abduqodirova D., Pardaboyeva M. The role of emotional creativity in students' decision-making // international conference of natural and social-humanitarian sciences. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 27-30.
6. Xusanova, N. . (2024). Factors influencing the psychological characteristics of preschool children with different temperaments. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 17–20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37667>
7. Amangeldiyev, S. . (2024). The importance of social activity in old age: a key factor for psychological well-being. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 12–16. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37666>
8. Абдусаматова Шахло Сайтмуратовна. (2024). Роль психологии в формировании толерантности у студентов. IMRAS, 7(7), 39–43. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1664>
9. Ozodqulov, O. . (2024). Vatanparvarlik ruhini talabalarda rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Центральноеазиатский журнал академических исследований, 2(10 Part 2), 37–41. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajar/article/view/38469>
10. Burieva, K. E., & Kamilova, Z. A. (2022). The psychology of adolescence. Scientific progress, 3(4), 923-929.
11. Zukhra Mirzotilloevna Radjabova. (2023). Features Of Adolescent And Teacher Cooperation In The Current Period In Choosing A Profession. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 210–215. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/131>
12. Abdurasulov J. (2024). Harbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Молодые ученые, 2(6), 48–52. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/28164>
13. Abdurasulov J., & Pardabayeva , M. (2024). Musobaqadan oldin sportchilarni psixologik tauyorlash. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6 Part 2), 73–76. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>